



## PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING NIZOLI OILALAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

**Abdurashidov Muhammadjon To'liqinjon o'g'li**  
*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2-bosqich kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola orqali siz oilaning tinchligi qanchalik ahamiyatga ekanligini, oila jamiyatning bir bo'g'ini sifatidagi mazmunini, profilaktika inspektori tomonidan nizoli oilalar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos jihalarini, profilaktika inspektori tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va ularda uchrab turgan muammolar, ularning yechimlarini ilmiy jihatdan asoslanganligini ko'rishingiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Nizoli oila, profilaktika inspektori, ma'naviy tahdid, huquqbuzarlik, umumiy, yakka profilaktika, muammo, oilaning tinchligi.*

### IMPROVING THE WORKING ACTIVITY OF PROPHYLAXIS INSPECTORS WITH FAMILIES IN CONFLICT

**Annotation:** *Through this article, you will learn how important the peace of the family is, the meaning of the family as a link of society, the specific aspects of the prevention inspector's work with conflict families, the tasks that must be performed by the prevention inspector and the problems they encounter. , you can see that their solutions are scientifically based.*

**Key words:** *Disputed family, prevention inspector, moral threat, offense, general, individual prevention, problem, family peace.*

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАБОТОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ С СЕМЬЯМИ, НАХОДЯЩИМИСЯ В КОНФЛИКТЕ

**Аннотация:** *Из этой статьи вы узнаете, насколько важен мир в семье, значение семьи как звена общества, особенности работы инспектора по профилактике с конфликтными семьями, задачи, которые должен выполнять инспектор по профилактике и проблемы, с которыми они сталкиваются, вы можете видеть, что их решения научно обоснованы.*

**Ключевые слова:** *Конфликтная семья, инспектор профилактики, моральная угроза, правонарушение, общая, индивидуальная профилактика, проблема, семейный мир.*

*Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi.*

**Sh.Mirziyoyev**

**KIRISH**



Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf odatlarni o'zida sinovidan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan.

Xususan, o'zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O'zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro'zg'or tutishi, farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. o'zbek oilalari o'zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo'lish huquqiga ega. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan<sup>49</sup>. Jumladan, Sohaga oid 18 ta qonun hujjati, shu jumladan 2 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 ta Farmon va Qarori, Hukumatning 10 ta qarori va farmoyishi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash Konsepsiyasi qabul qilinib, ijrosi ta'minlandi. Shuningdek quyidagi institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi:

- mamlakatimizda Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya hamda Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi;

- oila, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash sohasida davlat boshqaruvi organi – mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi;

- Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi;

- 197 ta tuman (shahar)da Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslar, shu jumladan ayollarni rehabilitatsiya qilish markazlari va Ishonch telefonlari faoliyati yo'lga qo'yildi;

- 14 ta hududda Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etildi;

- "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institute tashkil etildi;

<sup>49</sup><https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>.



- 154 ta tuman (shahar)da "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash innovatsion maktablari" faoliyati yo'lga qo'yildi;

- mahallalarda oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari lavozimi joriy etildi;

- ijtimoiy faol ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlab borish, ularni o'qitish, malakasini oshirish tizimi yaratildi;

- Xotin-qizlarni kafillik asosida muddatidan oldin jazodan ozod etish tizimi yaratildi. Xususan, shu davrga qadar jinoyat sodir etgan 1893 nafar xotin-qiz kafillikka olinib, muddatidan oldin jazodan ozod etildi<sup>50</sup>;

Oilaviy nizo va janjallar, ajralish muammosi hozirgi paytda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilalar ajralishlarining mavjudligi bizning respublikamizda ham keng jamoatchilik diqqatini o'ziga qaratib, bu muammoning yechimini topish uchun kerakli choralarni ko'rishga da'vat etmoqda. Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o'rtasidagi nizolardir. Shu munosabat bilan shu kabi muommoli holatlarni oldini olish va ijtimoiy hayotimizdagi salbiy holatlarni baratrof etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son farmoni** ishlab chiqilishi jamiyatdagi turli xil salbiy holatlarni bartaraf etish va ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishni yanada jadallashtirdi. V.G.Belinskiy shunday degan "Shunga qat'iy imonim komilki, er-xotin ittifoqi tevarakatrofdagilarning aralashuvidan xoli bo'lmog'i kerak, binobarin, bu ikki kishidan boshqa hech kimning ishi emas". Oila insonlarni birlashtirib turuvchi eng kichik ijtimoiy birlik bo'lib, uning tinchligi, ravnaqi va barqarorligi jamiyat tinchligi va barqarorligi hisoblanadi. Shu sababli oila ijtimoiy institutini har tomonlama rivojlantirish omillarini ishlab chiqish orqali jamiyat farovonligini taminlagan bo'lamiz. Bugungi kunda ba'zi oilalarda janjallar ko'paygan. Bu janjallarning ildiziga ahamiyat beradigan bo'lsak, oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan muomalalaridagi kamchiliklarni ko'ramiz. Shunday ekan oila a'zolari biri biri bilan muomala qilishni va o'zaro shaxslararo samimiy munosabatni o'rnatsa, insoniy axloq-odob, milliy an'ana va qadriyatlarimiz asosida oilaviy hayotni tashkil etsa turli hil oilaviy nizolar oldi bartaraf etiladi deb aytishimiz mumkin. Shuningizdek oilaviy hayotni to'g'ri tashkil etish yuzasidan muqaddas dinimiz ko'rsatgan tavsfiyalariga rioya qilish orqali ushbu ziddiyatli holatlar oldi olish mumkin. Abdulloh Nosih Alvon aytadi: "Islom dini er-xotin oldiga bir-biridagi haqlarni bayon qiladigan yo'lni belgilab bergan. Bu yo'lni o'zlariga aniqlik bilan tatbiq qilsalar, baxtiyor hayot kechiradilar. Muammolar qayg'usi va kundalik tashvishlar dillarini xira qilmaydi". Lekin, afsuski, er yoki xotin yoxud ikkisi ham haqlarni ado qilishda Islom o'rnatgan yo'ldan o'zlarini olib qochadi. Buning oqibatida ziddiyatlar kelib chiqadi va muammolar paydo bo'ladi. Ular birbiriga adovat va nafratni ichlarida saqlab yurishadi.

<sup>50</sup><https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>.



Ayrim hollarda qaramaqarshiliklar alanga olib, ziddiyat avjiga chiqadi. Ishning ohiri esa ajrashish yoki taloqqa yetib boradi. Masalan, xotin eriga yomon muomala qilsa, shariat yuzasidan qaraganda, er darhol taloq aytishga o'tishi kerakmi yoki avvaliga Islom ko'rsatgan yo'lga amal qilishi lozimmi? Yoki, aksincha, er xotiniga yomon muomala qilganida, xotin shu zahotiyoyq ajrashishni talab qilib turib olishi lozim ko'riladimi yoki oldin bunday holatda muqaddas dinimiz amriga quloq tutish ma'qul hisoblanadimi? Juda ham zarur holatlarni istisno qilganda, Islom taloq tushishining oldini oladigan ehtiyot choralari qo'llaydi. Bunday choralar ikkiga bo'linadi: 1. Turmush qurishdan oldingi ehtiyot choralari; 2. Turmush qurgandan keyingi ehtiyot choralari. Shunday ekan yoshlarimiz oilaviy hayotini farovon qurishlari uchun ikkala holatdagi choralarni amalga oshirish yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Shunday qilib, ajralish muammosi hozirgi paytda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilalar ajralishlarining mavjudligi bizning respublikamizda ham keng jamoatchilik diqqatini o'ziga qaratib, bu muammoning yechimini topish uchun kerakli choralarni ko'rishga da'vat etmoqda. Chunki yuqorida qayd etilganidek, ajralishlar natijasida millionlab odamlar — eng avvalo, farzandlar, ayollar, qolaversa, erkaklar va hatto ajralishganlarning yaqinlari ham «ma'naviy jarohat» oladilar. Bularning barchasi o'zbek oilasida ajralish masalasiga jiddiyroq, e'tibor berish lozimligini va uning oldini olish, salbiy asoratlarni kamaytirish choratadbirlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

### ASOSIY YO'NALISHLAR

**Oila** — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi. Oila jamiyatning muqaddas maskani, eng asosiy tarbiya makonidir. Oiladagi ota ibrati, ona mehri, bobo va buvilar o'g'itlari orqali milliy qadriyatlarimizga bo'lgan imon-e'tiqod, halollik, mehr-oqibat avloddan avlodga o'tadi, farzandlarimiz ongi va qalbida muhrlanib boradi. Iqtisodiy jihatdan farovon, ijtimoiy-axloqiy va g'oyaviy muhiti sog'lom oila negizida yuzaga kelgan jamiyat va davlatning poydevori mustahkam bo'ladi. Chunki bunday oilalarda ma'naviy barkamol inson voyaga yetadi, uning his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, tafakkuri el-yurtga halol xizmat qilishdek insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan.

Har bir oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Aynan oilani tinch bo'lishi mamlakat va jamiyat tarraqqiyoti uchun muhim omil bo'ladi. Chunki tinchlik bo'lgan mamlakatda yoki jamiyatda rivojlanish bo'ladi. Shaxs ham oilada ilk tushunchalarni va ta'limotlarini oladi va uning kelajakda qanday inson bo'lib yetishib chiqishida oilanining o'rni muhim sanaladi. Bu jihatlarni mamlakatimiz inobatga olib



oilaning jamiyat hayotidagi o'rnini, ahamiyatini oshirish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida qator ishlarni ammalga oshirib kelmoqda. Shunday bo'lishiga qaramay nizoli oilalar uchrab kelmoqda. Ularni o'rganish jarayonida hamda nizoli muammolarni kelib chiqish sabablari va ularni vujudga keltirishga olib kelayotgan shaxslar ishtirokiga ko'ra qator turlarga bo'lishimiz mumkin hisoblanadi.

Er-xotin o'rtasidagi janjallarning tez-tez vujudga kelish sabablari quyidagilardir:

- Turmush o'rtoqlardan birining mastligi
- Oilaviy hayot o'tkazish bo'yicha qarashlarining farqi
- Zino
- Turmush o'rtoqlarning xudbinligi
- Haddan tashqari rashq
- Sheriklarga nisbatan hurmatsizlik
- Qondirilmagan ehtiyojlar

- Turmush o'rtoqlaridan birining tarbiyalashda yoki hayotini boshqarishda ishtirok etmasligi. Ma'lumki yuqoridagi sabablarining qaysi biridir ko'proq foizni qaysi biridir kamroq foizini tashkil etadi, lekin baribir o'z o'rnida oilaviy konfliktlarni vujudga keltirmoqda.

Oilaviy nizolarda kimlar ishtirok etayotganiga ko'ra ularni quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin:

- er-xotin o'rtasidagi nizolar;
- qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar;
- qaynona-kuyov o'rtasidagi nizolar;
- ovsinlar o'rtasidagi nizolar;
- ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar.

Oiladagi nizolarning turlari. Nizolarning eng keng tarqalgan turlari tasnifi:

**Konstruktiv to'qnashuvlar.** Turli sabablarga ko'ra bunday to'qnashuvlar mavjud ammo ularning yechimi ikkala uzumchiga qoniqish hissi tug'diradi, boshqacha qilib aytganda, bu o'zaro kelishmovchilarni hal qilish uchun kelishuvga aylangan. Bu yosh oilada yoki uzoq yillar tajribaga ega oilada bo'ladimi doimo olila gullab yashnaydi. **Yomon nizolar.** Bunday to'qnashuvlar juda xavflidir, chunki ularning natijasi ikki tomoni qoniqtirmaydi va ko'p yillar davomida ettirishga, nikohlari bilan qoniqish hissini kamaytirishga, uzoq vaqt yoqimsiz depozit qoldirib ketishga majbur qiladi. Bunday to'qnashuvlarning tez-tez takrorlanishi ajralishiga olib kelishi mumkin.<sup>51</sup> Albatta, bu ro'yxatni yanada davom ettiraverish mumkin, lekin biz hozircha shu yuqorida keltirilganlar bilangina kifoyalanib, oilaviy hayotda ro'y berish ehtimoli nisbatan yuqori bo'lgan nizolarning eng asosiysi bo'lmish er-xotin o'rtasidagi nizolarning ayrim xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Har qanday oilada er-xotinning o'zaro munosabatlarida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi muqarrar. Lekin shu nizolarning xarakteri, ularning oqibatlariga ko'ra turli oilalar va

<sup>51</sup><https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-nizolar-turlari-va-vujudga-kelish-sabablari>



ulardagi oilaviy munosabatlar bir-birlaridan farqlanadi. Shunday ekan biz dastavval muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz oilalarda ro'y beradigan nizolarni ko'rib chiqaylik. Muvaffaqiyatli oilalardagi nizolar biriktiruvchi va muvaffaqiyatsiz oilalardagi nizolar esa ajratuvchi xarakterga ega. Shuning uchun ham psixologik adabiyotlarda nizolar shartli ravishda «**konstruktiv**» («biriktiruvchi») va «**destruktiv**» («ajratuvchi») nizolarga farqlanadi. Ular o'zlarining yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar, bu muammolarning hal etilishi, kechishi, ishtirokchilari, oqibatlari va boshqalarning xarakteriga ko'ra bir-birlaridan farqlanadi. Biriktiruvchi nizolarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar va ularning hal qilinishi ham urning, ham xotinning, butun oilaning manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Agar ular hal etilsa, buning oqibatida oilaning umumiy manfaatlariga oid muammolar o'z yechimni topadi. Bunday nizolarga oiladagi tartib, intizom, ozodalik, oila byudjetini yuritish, saranjomlik, tejamkorlik, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, bola tarbiyasi va boshqa shu kabi toifadagi nizolar misol bo'la oladi. Ular asosan er-xotin o'rtasidagina yuzaga keladi, ularning ishtirokchilari ham faqat er-xotinlarning o'zlarigina hisoblanadilar. Bunday nizolarning muvaffaqiyatli hal etilishida er-xotinlarning bir-birlarini yanada yaqinroq bilib, tushunib, bir-birlarining salbiy va ijobiy xususiyatlarini o'rganib borish, bir-birlariga moslashish, muammolarni hal etish borasida hamkorlik qilish kabi oilaviy hayot mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiluvchi jarayonlar amalga oshadi. Er yoki xotin bir-birlari bilan urishib qolganlaridan so'ng bu haqda uchinchi bir odamga gapiradigan bo'lsa, imkon qadar shu nizoda o'zini aybsiz, haq qilib ko'rsatishga, shu uchinchi odamni uning manfaatlarini himoya qilishiga og'dirib olish maqsadida bir yoqlama gapiradi. Bunda sub'ekt foydalanadigan gap-so'zlar, ohang, imo-ishora, mimika, urg'u va boshqalar deyarli barcha verbal va noverbal vositalar ro'y berib o'tgan hodisa (nizo-janjal)ning asl holatiga qaraganda bo'rttiribroq idrok etilishini ta'minlaydi. Nizo haqida qanchalik ko'p odamga gapirib beraverilgan sayin u ayanchli tus olgan holda avj olib boraveradi va oqibatda fojeali natijalarga ham olib kelishi mumkin. Shunday ekan, oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan nizolarga birdek salbiy jihatdan qarayverish ham yoki ularni birdek oqlash ham maqsadga muvofiq emas.

Joriy yilning **10 oyi** davomida **32 014 nafar** xotin-qizlar himoya orderi berish orqali davlat himoyasiga olindi. Shu orqali jumladan, **14 296** ta oilani yarashtirishga, **16 843** ta nizoni bartaraf etishga erishilgan. Bu haqda AOKAda o'tkazilgan brifingda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi axborot xizmati rahbari Saodat Boymirzayeva ma'lum qildi. Qayd etilishicha, nizo bartaraf etilmagan **1 444** ta oilada zo'ravon shaxslarni tuzatish dasturidan o'tkazish ishlari amalga oshirilmogda. Shuningdek, **8 527** ta himoya orderlari bo'yicha ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilanib, xotin-qizlarning buzilgan huquqlari tiklandi. Ma'lum qilinishicha, **10 oy** davomida **41 583** ta oilaviy ajrimlar qayd etilgan. Joylarda ajrimlarning oldini olish maqsadida mahallalarda "Nizoli oilalar bilan individual ishlash tartibi" joriy etildi. Jamoatchilik vakillari



xamkorlikda nizoli oilalar bilan yakka tartibda ishlash orqali **24 193** nafar ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalardan **20 265** nafari yarashtirildi<sup>52</sup>.

Bugungi kunda nizoli oilalar bilan ishlashda bir qator vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar o'z vakolatlari doirasida ular bilan manzili ishlar olib bormoqda. Bular ichida aynan Ichki ishlar organlarining vakolatli soha vakillari ham ularda mavjud bo'lgan muammolarni o'rganish va ularni amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etib kelmoqda. Oilaviy nizolar aynan mahalla hududida mavjud bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi. Aynan mahalla hududida faoliyat ko'rsatib kelayotgan kuchli beshlik har bir nizoli oila vakillari bilan o'z vakolatlarida belgilangan tartibda ularda mavjud bo'lgan muammoli holatlarini o'rganib, oila a'zolariga zarur bo'lgan yordam va maslahatlarni berib, ularni oilaviy farvon turmush kechirishga ko'maklashmoqda.

Profilaktika inspektorlari nizoli oilalar bilan ishlash faoliyatida **bir qator kamchiliklarga** yo'l qo'yimoqda. Ushbu kamchiliklariga profilaktika inspektorlariga murojaat qilgan shaxsning murojaatiga nisbatan e'tiborsizlik, beparvolik, oddiy turmushdagi holat sifatida baholashi yoki nizoli oiladagi shaxs ushbu oiladagi muammosini ko'chaga chiqishi, bu esa oilaga nisbatan uyatli holat sifatida baholanishi va buning natijasida ushbu holat profilaktika inspektorlari tomonidan aniqlanmay keyinchalik latent holda qolishiga olib kelishi mumkinligi, profilaktika inspektorlari tomonidan nizoli oilalarni hal etish uchun ularning uylariga borib faqatgina hujjat uchun ular bilan suhbatlashib, holatga haqqoniy baho berilmayotgani yoki nizoli oila vakillari nisbatan o'zi shunaqa bu oila o'zi urushib, o'zi yarshib yuradi degan xatto to'xtanga kelishi yoki nizoli oila vakillar bilan ishlash faoliyatida hamkorlik masalari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi. Bu esa bevosita keyinchalik oila a'zolaridan birining o'limiga yoki bolalarni yetim qolishiga sabab bo'ladi. Shuningdek shaxsning ruhiy holati salbiy ta'sir ko'rsatishi uning turmushni davom etirishga ma'lum bir to'siqlar vujudga kelishiga olib keladi. Ushbu kamchiliklarni o'rganish jarayonida ularni oldini olish shuningdek ularni yechish uchun ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish lozim hisoblanadi. Kuzatuvlar natijasida nizoli oilalar vujudga kelishining sabablari va ularga imkon berib turgan shart-sharoitlar o'rganilganda yosh oila vakillarini o'zaro muhabbat asosida turmush qurishi qisqa muddat o'tishi bilan o'zaro bir birini tushunmaslik holatlari, shariy nikoh asosida yashirin turmush qurganligi, oilaviy daromadning kamligidan norozi ekanligi, er o'zining turmush o'rtog'ining huquqlarini poymol qilishi (uni ko'chaga chiqarmasligi yoki olgan ma'lumotiga ko'ra uni biror yerda ishlashiga ruxsat bermaganligi va boshqa.)

Profilaktika xizmatlari tomonidan nizoli oilalar doirasidagi huquqbuzarliklarning umumiy tartibdagi profilaktikasi faoliyatini tashkil etishning asosiy maqsadi bo'lib,

<sup>52</sup><https://uzreport.news/society/ozbekistonda-10-oy-davomida-32-014-nafar-xotin-qizlar-himoya-orderi-berish-orqali-davlat-h>



ma'muriy hududlarda yashovchi oilalar haqida tezkor vaziyatda xabardor bo'lish, sodir etilishi mumkin bo'lgan nizolarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, notinch oilalardagi ijtimoiy ruhiy-muhitni sog'lomlashtirish hamda aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Oila doirasidagi huquqbuzarlik profilaktikasi amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish. Dastlabki profilaktika shaxsda jamiyatga zid qarashlar shakllanishi, uning axloq va huquq normalariga zid qilmish sodir etilishining oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonidir.

Profilaktika inspektorlari tomonidan ushbu yo'nalishda profilaktika faoliyatini tashkil etilishi birinchidan, jamiyatga zid turmush tarzi kechiruvchi shaxslar hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni o'z vaqtida aniqlashga, ikkinchidan, g'ayriijtimoiy hodisa va jarayonlar, voqea va hodisalardan xabardor bo'lishga, uchinchidan, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga, to'rtinchidan, ushbu turdagi huquqbuzarliklarni bartaraf etish, kuchsizlantirish va oldini olishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy vositalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Oila doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishning yakka tartibdagi chora-tadbirlari muayyan shaxsning xislatlari, uning ijtimoiy muhitga xos jihatlari, ijtimoiy-maishiy shart-sharoiti va turmush tarzi, g'ayriijtimoiy xulq-atvori, maishiy zo'ravonlik sodir etishga moyilligi, shuningdek, u oila-turmush doirasida sodir etilgan huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalovchi boshqa omillar bilan belgilanadi.

Shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvori, uning huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi oxud u huquqbuzarlik sodir etganligidan dalolat beruvchi ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi maishiy zo'ravonlikning oldini olishning yakka tartibdagi chora-tadbirlarini qo'llash uchun asos bo'ladi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishning yakka tartibdagi profilaktikasi shaxs ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari, turmush tarzi, g'ayriijtimoiy xulq-atvori, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi hamda sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi.

Jinoyatlarning yakka tartibda oldini olish deb, muayyan jinoyat sabablari va uni sodir qilishga ko'maklashgan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf qilish, jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash va ular bilan zarur tarbiyaviy profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazish bo'yicha amalga oshiriladigan maxsus kriminologik darajadagi jinoyatlarning oldini olishdan iborat gaoliyat deb qayd etib, ushbu jarayonni "oghlantirish", "bartaraf qilish", "to'xtatish", (to'sqinlik qilish) kabi bosqichlarda amalga oshirilishi tushuniladi.

Yakka profilaktika jinoyatlarning oldini olishning ijtimoiy darajasiga, miqyosiga (hajmiga), hududiy miqyosiga, ta'sir qilish ob'yektiga, mazmuniga qarab tasniflab,





jinoyatchilikning miqyosiga qarab o'z navbatida umumiy, maxsus va individual choralarga bo'linadi.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi muhim ahamiyat kasb etib, adamning yashashi uchun qulay shart-sharoit yaratish, shaxsning muayyan jinoyat sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xususiyatlarni o'rganish bilan jiyoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratiladi.

### **XULOSA**

Har bir inson oila bag'rida dunyoga keladi. Shaxs bu dunyo haqidagi ilk tassurotlari oilada shakllanadi. Uning kelajakda kim bo'lishi yoki qanday inson bo'lib yetishishi, oilaning unga bergan tarbiyasiga bog'liq sanaladi. Bilamizki xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bor. Bu kabi naqlar xalqimiz tomonidan necha asrlar davomida ko'rgan bilganlarini taxlil qilib ushbu to'xtamga kelgan. Albatta bugun o'sib kelayotgan yosh avlod oila bag'rida kamol topmoqda. Ularni biz ertangi O'zbekiston bunyodkorlari desak noto'g'ri bo'lmaydi. Chunki davlatni boshqarish uni rivojlanishiga yoki uning kuch va qudratini amalda namoyon bo'lishida aynan shu yosh avlod muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda mamlakatimiz tomonidan har bir yosh oilani qo'llab-quvvatlash ularni jamiyat hayotiga moslashtirish va ulardagi mavjud bo'lgan muammoli holatlarni o'z vaqtida hal etish, oila a'zolarining har biriga o'z qobiliyatlarini amalda namoyon etishiga yoki o'zlarning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda. Ko'rolayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan oilaviy kelishmovchiliklarga butkul barham berib bo'lmayapti. Oilaviy muammolar haqida so'z ketar ekan, hayolimizni ko'plab salbiy fikrlar bilan band etib bo'lgan. Afsuski, aslida ham shshunday. Ushbu munosabatlarda to'la muvaffaqiyatga erishish istagi og'riqli nuqtalardan biri bo'lib qolmoqda. Biz ana shu holatga qarshi kurashni aniqlangan vaqtdan boshlasak biror natijasiga erishimiz qiyin bo'ladi. Odob-axloq, mehr-muhabbat, oqibat ustunligi oilada totuvlikni ta'minlashning eng birinchi zarurati. Demak, ana shu fazilatlarini sifatlarini oldindan mustahkamlab quyishga intilishimiz kerak. Tan olish kerak, har bir oilaning moddiy ma'naviy ehtiyojlari nor. MUammo va nizolar qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi. Xo'sh yechim qanday? Biz nima qilsak tinch-totuv yashaymiz. Buning siri hamjihatlik va og'izbirchilikda. Hayotimizni ezgu g'oyalarga bo'sundirganimiz sari u yanada go'zal, jozibali, benuqson bo'lib boradi. Olla gullab-yashnaydi. U jamiyatning shunchaki tinchlik-totuvlik xukm surayotgan bo'g'ini bo'libgina qolmay, insoniyatni ulug'vorlikka, yuksaklikka eltadigan manbaga aylanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasi darsligi. Toshkent 2021
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-



qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"  
2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son farmoni

4. "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences"  
Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P. 3. Deutsch, M. (1973). Konkretning  
echimi: Konstruktiv va halokatli jarayonlar. Nyu-Xeyven, KT: Yel universiteti matbuoti.

5. To'ychiyeva G.U. – filologiya fanlari doktori (DSc), Norqulov H.D. – pedagogika  
fanlari nomzodi, dotsent. Turmush qurgan yosh kelinlarni oilaviy hayotga tayyorlash"  
bo'yicha o'quvslubiy majmua. T.:2021,269-bet 5. Oynisa Musurmonova. Oila  
ma'naviyati-milliy g'urur. -T.: "O'qituvchi", 2000, 60-bet. 6. Oila psixologiyasi:  
Shoumarov G'.B, Oila psixologiyasi. —T.: «Sharq», 2015

6. <https://uzreport.news/society/ozbekistonda-10-oy-davomida-32-014-nafar-xotin-qizlar-himoya-orderi-berish-orqali-davlat-h>

7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>.

8. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-nizolar-turlari-va-vujudga-kelish-sabablari>